

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Ichki audit bo‘limi tomonidan
2025-yilning III-chorak yakunlari bo‘yicha bajarilgan ishlar yuzasidan**

Ma’lumot

Ichki audit bo‘limini tomonidan 2025-yilga mo‘ljallangan **yo‘l xaritaning I-bandi ijrosi yuzasidan** - “Korrupsiyaga qarshi auditlarni o‘tkazish chastotasi” ijrosini bajarish maqsadida **hisobot davrida**, 2025-yil uchun Adliya vazir tomonida tasdiqlangan Ichki audit bo‘limining yillik ish rejasiga muvofiq 7 ta obektda ichki audit tadbiri o‘tkazildi.

2025-yil uchun tasdiqlangan byudjet dasturlarining (PQ-455-son qaror 25.12.24 y.) 1-yarim yillik maqsadli indikatorlarning baholash tadbirlari amalga oshirildi.

Shuningdek, Hisob palatasining "Masofaviy audit" AAT platformasi orqali **16 ta obektda jami 4822 ta risk holatlari** kelib tushdi.

Mazkur holatlar bo‘yicha **16 ta obektda jami 594 ta risk taxlillari** bo‘yicha belgilangan muddatlarda ichki audit bo‘limi tomonidan masofaviy audit tadbiri orqali o‘rganildi hamda belgilangan tartibda o‘rganish natijalari "Masofaviy audit" AAT platformasiga biriktilib o‘z navbatida Hisob palatasi tomonidan o‘rganish natijalari bo‘yicha kiritilgan xavf taxlillari **nazoratdan olindi**.

II-bandi ijrosi yuzasidan - Budjet to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olishdagi natijalari.

2025-yil uchun Adliya vazir tomonida tasdiqlangan Ichki audit bo‘limining yillik ish rejasiga muvofiq 5-ta obektda ichki audit tadbirlari o‘tkazildi.

Jumladan:

1. **Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasida** (Adliya vazirining 2025-yil 3-fevraldagi 38-um-son buyrug‘i);
2. **Namangan viloyati adliya boshqarmasida** (Adliya vazirining 2025-yil 4-martdagi 92-um-son buyrug‘i);
3. **Toshkent davlat yuridik universitetida** (Adliya vazirining 2025-yil 27-martdagi 117-um-son buyrug‘i);
4. **Sirdaryo viloyati adliya boshqarmasida** (Adliya vazirining 2025-yil 6-maydagi 166-um-son buyrug‘i);
5. **Surxondaryo viloyati adliya boshqarmasida** (Adliya vazirining 2025-yil 3-iyundagi 202-um-son buyrug‘i).

6. Adliya vazirligining markaziy apparati (Adliya vazirining 2025-yil 15-iyundagi 243-um-son buyrug‘i).

7. Adliya vazirligi huzuridagi “Konvension markaz majmuasi direksiyasi” (Adliya vazirining 2025-yil 12-avgustdagi 243-um-son buyrug‘i).

Mazkur obektlarda profilaktika tadbirlari natijasida **495 ta holatda jami 3 mlrd. 808 mln. 699 ming so‘mlik** budget to‘g‘risidagi qonun buzilish holatlarining oldi olindi.

III-bandi ijrosi yuzasidan - Masofaviy nazoratni amalga oshirishdagi natijalari yuzasidan Hisob palatasining "Masofaviy audit"AAT platformasi orqali **16 ta obektda jami 4822ta risk holatlari** kelib tushdi.

O‘tkazilgan masofaviy audit tadbirlar natijasida **594 ta** holatda jami **6 mlrd. 635 mln. 61 ming so‘mlik** risk holatlari **nazoratdan echilgan**.

Jumladan:

1. **4 ta holatda** “Mansabdor shaxslarga bog‘liq yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar (UZEX)” **22 mln. 49 ming so‘m**;

2. **440 ta holatda** “YAMMTda mehnat shartnomalarsiz UzASBoda oylik ish haqi hisoblanganligi” **2 mlrd. 41 mln. 97 ming so‘m**;

3. **69 ta holatda** “Mansabdor shaxslarga bog‘liq yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar”**2 mlrd. 7 mln. 45 ming so‘m**;

4. **1 ta holatda** “Davlat xaridlarida manfaatlar to‘qnashuvi” **100 mln. 80 ming so‘m**;

5. **3 ta holatda** “Arzon va tez eskiruvchi buyumlar va inventarlarni xaridi uchun ajratilgan mablag‘lar tahlili” **1 mlrd. 409 mln. 20 ming so‘m**;

6. **3 ta holatda** “Xorijda bo‘lgan fuqarolarga ish haqi to‘lanishi”**11 mln. 63 ming so‘m**;

7. **17 ta holatda** “Byudjet tashkilotda eng ko‘p hisoblangan ish haqi to‘g‘risida” **1 mlrd. 42 mln. 6 ming so‘m**;

8. **57 ta holatda** “Byudjet tashkilotda nepotizm holatlari”

IV-bandi ijrosi yuzasidan – ichki audit obektlari tomomnidan bajarilgan taklif va tavsiyalar soni yuzasidan:

Hisobot davrida o‘tkazilgan ichki audit tadbirlarida jami 24 ta taklif va tavsiyalar berildi.

Jumladan:

1. Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasi:

- Ko'kdala tumanida Davlat xizmatlari markazi ma'muriy binosida amalga oshirilgan qurilish montaj ishlarini yakuniy nazorat o'lchovidan o'tkazish va viloyat hokimligi huzuridagi Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi bilan yakuniy solishtirma dalolatnoma tuzish orqali mazkur obyektga o'rnatilgan uskunalar, asosiy vositalar va tovar moddiy zahiralarni "**avizo**" tartibida qabul qilib olish;
- joriy ta'mirlash ishlari yakuniga etgan ob'ektlarda amalga oshirilgan joriy ta'mirlash ishlarini yakuniy nazorat o'lchovidan o'tkazish;
- Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 314-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq kasallik varaqalarida nafaqa foizlarini rasmiylashtirib buxgalteriyaga taqdim qilib borish bo'yicha komissiya tarkibini tuzish;
- Budjetdan tashqari mablag'lardan foydalanishda xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibiga rioya qilgan holda yillik xarajatlar smetasini tuzishda, "Budjetdan tashqari adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi" mablag'laridan foydalanish bo'yicha Adliya vazirining buyrug'i asosida tasdiqlangan taqsimotga qat'iy amal qilgan holda tuzish;

2. Namanganviloyati adliya boshqarmasida:

- Chortoq tumanida Davlat xizmatlari markazi binosida amalga oshirilgan qurilish montaj ishlarini va joriy ta'mirlash ishlari yakuniga etgan ob'ektlarda amalga oshirilgan joriy ta'mirlash ishlarini yakuniy nazorat o'lchovidan o'tkazish;
- Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 314-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq kasallik varaqalarida nafaqa foizlarini rasmiylashtirib buxgalteriyaga taqdim qilib borish bo'yicha komissiya tarkibini tuzish;
- Xodimlarga xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 424-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari to'g'risida"gi Nizom talablari bo'yicha hisobdor shaxslarning avans hisobotlarini 2023-2024-yillarda va 2025-yilning o'tgan davri uchun hisobdor shaxslarning avans hisobotlarini rasmiylashtirish va mazkur hisobotlar bo'yicha qayta hisob-kitoblarni amalga oshirish.
- Adliya vazirining 2022-yil 29-iyunda "Davlat xizmatlari markazlari va Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida pullik xizmatlar ko'rsatishdan tushgan tushumlarni taqsimlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 139-um-son hamda Adliya vazirining 2025-yil 3-fevralda "Hududiy adliya organlari FHDY arxivlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining ayrim buyruqlariga o'zgartirish va

qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 37-um-son buyruqlari ijrosini bajarish maqsadida FHDY arxivlari tomonidan ko‘rsatilayotgan “Tezlashtirilgan tartibda fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari haqida ma’lumotnomalar berish” pullik xizmati uchun tushgan tushumlarni mazkur buyruq talablariga muvofiqlashtirish.

- Boshqarmada, buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish” to‘g‘risidagi standart talablari bo‘yicha Inventarizatsiyani qayta tashkil etish va boshqarma va uning tizimida tovar moddiy biyliklardan foydalanish samaradorligini tahlil qilgan holda tegishli choralar ko‘rish.

3. Toshkent davlat yuridik universitetida:

- Universitet Kadrlar bo‘limi tomonidan rasmiylashtirilayotgan buyruqlarda ishdan bo‘shayotgan xodimlarning foydalanilmagan mehnat ta‘tili davrlarini ko‘rsatish;

- Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 314-son qaroriga muvofiqlashtirgan xolda «UzASBO» dasturiy majmuasi orqali avtomatik ortiqcha hisoblanib to‘lab yuborilgan 66 mln. 411 ming 832 so‘m, mehnatga layoqatsizlik nafaqa pullarini belgilangan tartibda bosqichma-bosqich ushlab qolish;

- Har bir xarajat moddasini maqsadli va hisob-kitob asosida shakllantirish, loyihalar va tadbirlar uchun alohida smeta moddalari ajratish va smetani yil boshida tasdiqlash;

- O‘tkazilgan inventarizatsiya natijasiga ko‘ra, aniqlangankamomadlar bo‘yicha (da‘vo muddati o‘tgan) asosiy vositalar summalarini belgilangan tartibda balansdan tashqari schyotlarga o‘tkazish;

- Stipendiyalarning kechikishini oldini olish maqsadida, semestr natijalari bo‘yicha buyruqlarni o‘z vaqtida rasmiylashtirilishini ta‘minlash;

- Universitetda moddiy javobgarlik bo‘yicha mas‘ul shaxslar belgilashni qayta ko‘rib chiqish tavsija etiladi.

4. Sirdaryo viloyati adliya boshqarmasida:

- Guliston shahar hamda Guliston tuman Davlat xizmatlari markazi binolarida amalga oshirilgan qurilish montaj ishlarini yakuniy nazorat o‘lchovidan o‘tkazish va tegishli tartibda balansga qabul qilish;

- Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 314-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq kasallik varaqalarida nafaqa foizlarini rasmiylashtirib buxgalteriyaga taqdim qilib borish bo‘yicha komissiya tarkibini tuzish;

- Xodimlarga xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlarni amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 424-son qarori bilan tasdiqlangan

“O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari to‘g‘risida”gi Nizom talablari bo‘yicha hisobdor shaxslarning avans hisobotlarini qayta ko‘rib chiqish.

- Boshqarmada, buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish” to‘g‘risidagi standart talablari bo‘yicha Inventarizatsiyani qayta tashkil etish va boshqarma va uning tizimida tovar moddiy biyliklardan foydalanish samaradorligini tahlil qilgan holda tegishli choralar ko‘rish.

5. Surxondaryo viloyati adliya boshqarmasida:

- Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 314-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq kasallik varaqalarida nafaqa foizlarini rasmiylashtirib buxgalteriyaga taqdim qilib borish bo‘yicha komissiya tarkibini tuzish;

- Budjetdan tashqari mablag‘lardan foydalanishda xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibiga rioya qilgan holda yillik xarajatlar smetasini tuzishda, “Budjetdan tashqari adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi” mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha Adliya vazirining buyrug‘i asosida tasdiqlangan taqsimotga qat‘iy amal qilgan holda tuzish;

- Xodimlarga xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlarni amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 424-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari to‘g‘risida”gi Nizom talablariga asosan xodim xizmat safaridan qaytgan kundan e‘tiboran uch ish kuni mobaynida avans hisobotini hisobotga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xizmat safari guvohnomasi va xizmat safarida haqiqatda qilingan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi belgilangan tartibda taqdim qilish;

- Boshqarmada, buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish” to‘g‘risidagi standart talablari bo‘yicha Inventarizatsiyani qayta tashkil etish va boshqarma va uning tizimida tovar moddiy biyliklardan foydalanish samaradorligini tahlil qilgan holda tegishli choralar ko‘rish;

- Boshqarma balansidagi binolarda amalga oshirilgan kapital va joriy ta‘mirlash ishlarini yakuniy nazorat o‘lchovidan o‘tkazish.

6. Adliya vazirligi markaziy apparati:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi PF-6256-son Farmoniga asosan Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi tomonidan o‘tkaziladigan sud-ekspertiza tadqiqotlari uchun 1 563,2 mln. so‘m badal pulini belgilangan tartibda Sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga o‘tkazilishini ta‘minlash;

Ichki audit tadbiri hisobotining muvofiqlik auditida ko'rsatib o'tilgan davlat bojlari va yig'implari bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi taqsimotlarni me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiqligi yuzasidan tegishli bo'linmalarga ko'rsatmalar berish.

6. Adliya vazirligi huzuridagi "Konvension markaz majmuasi direksiyasi":

1. "Konvension markaz" tomonidan ishlab chiqilgan hisob siyosatining tarkibiga quyidagi qo'shimchalarni kiritish taklif etiladi:

- ish haqi, ustamalar, mukofotlar va boshqa to'lovlarni hisoblash usullarini belgilash.

- kirim-chiqim tartibi va hisob yuritish usullarini aniq ko'rsatish.

- buxgalteriya hujjatlarining yurish grafigi va mas'ul shaxslarni belgilash.

- inventarizatsiya o'tkazish tartibi, huquqiy asoslari va natijalarni rasmiylashtirish yo'nalishlarini belgilash;

- NHHlarda tasdiqlanmagan, biroq amalda qo'llaniladigan shakllarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- birlamchi hujjatlarga imzo qo'yishga vakolatli xodimlar ro'yxatini tasdiqlash;

- tabel yuritishga mas'ul shaxslarni rahbar buyrug'i bilan tayinlash va shaklni belgilash.

2. Har bir debitor va kreditor bilan hisob-kitoblarni to'liq inventarizatsiya qilish, nizoli yoki muddati o'tgan qarzdorliklar bo'yicha da'vo arizalarini tayyorlash va sudga murojaat qilish.

3. Pullik xizmatlar ko'rsatish sohasini raqamlashtirish maqsadida, elektron oferta shartnomasi tuzish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning telefon raqamiga sms kelishi orqali ko'rsatiladigan pullik xizmatlarning tasdiqlashini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

4. Ustav jamg'armasini shakllantirishga oid hujjatlarni tahlil qilish:

- vazirlik tomonidan kiritilgan mulk va pul mablag'lari bo'yicha barcha buyrug', topshiriq, qabul-topshirish dalolatnomalari, balansdan chiqarish hujjatlari to'liq yig'ib o'rganish;

- Bu hujjatlarni moliyaviy hisobotdagi aks ettirilgan qiymatlar bilan taqqoslab tekshirish.

- Tafvut aniqlangan holat bo'yicha hisobotga tegishli tuzatishlar kiritilish.

- Vazirlik tomonidan ustav jamg'armasining shakllanishi bo'yicha chiqarilgan buyruqlarni amaldagi holatga muvofiqlashtirish bo'yicha qo'shimchalar kiritish.

- Kelgusida bu kabi tafovutlarning oldini olish uchun ustav kapitaliga kiritiladigan har qanday aktiv bo'yicha mustaqil baholash va audit xulosasini olish.

- Ushbu tafovutga sabab bo'lgan mansabdor shaxslarning harakatlari yoki e'tiborsizlik holatlari o'rganilib, tegishli xulosalar chiqarish.

5. Rentabellik darajasini oshirish bo'yicha takliflar:

- xizmat turlarini diversifikatsiya qilish orqali yangi xizmat turlarini joriy etish;
- xorijiy tashkilotlar uchun maxsus paket xizmatlar ishlab chiqish va eksportbop xizmatlar ko'rsatish bo'yicha izlanishlar olib borish;

- xizmatlar kalkulyatsiyasini amaldagi xizmatlar narxlarini bozor sharoiti va real xarajatlar asosida qayta hisoblab chiqish;

- xizmat ko'rsatish jarayonlarida xarajatlarni optimallashtirish, elektr energiyasi va boshqa kommunal xizmatlardan samarali foydalanish maqsadida avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini joriy etish, shuningdek, qayta tiklanuvchi manbalardan, jumladan, quyosh panellari orqali "yashil energiya"dan samarali foydalanishni ta'minlash uchun ularni xarid qilib o'rnatish taklif etiladi.

6. Kelgusi davr xarajatlari uchun mablag' jamg'arish bo'yicha takliflar:

- rezerv (zaxira) jamg'armasi tashkil etish;

- daromadlarning muayyan foizini (masalan, 10%) har oyda maxsus "rejaviy xarajatlar zaxirasi" jamg'armasiga o'tkazish orqali bank foizli depozitlariga joylab borish tartibini yo'lga qo'yish;

7. "Konvension markaz majmuasi" DMda davlat xaridlari jarayonida qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan:

- davlat xaridlarida qonun va me'yoriy hujjatlar talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash;

- xaridlar oldidan bozor narxini o'rganish va tasdiqlovchi hujjatlarni yig'ishni majburiy qilish;

- mas'ul xodimlarga ushbu talablar bo'yicha tushuntirish va yo'riqnoma berish;

- ichki audit xulosalari asosida choralar ko'rish va takroriy kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan nazoratni kuchaytirish.

8. Adliya vazirligi tomonidan beg'araz topshirilgan jami 1 mlrd. 159 mln. 287,3 ming so'mlik asosiy vositalardan 1 mlrd. 085 mln. 650,0 ming so'mlik qismi buxgalteriya balansiga kirim qilinmagan xolatini bartaraf etish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi:

- kirim qilinmagan asosiy vositalarni dalolatnoma asosida rasmiylashtirib, buxgalteriya balansiga belgilangan tartibda kirim qilinishini ta'minlash;

- kelgusida asosiy vositalar qabul qilingan zahoti ularni buxgalteriya balansida o'z vaqtida va to'liq aks ettirishni ta'minlash maqsadida ichki tartib ishlab chiqilsin

hamda ushbu tartibni Markazning hisob siyosatiga qo‘shimcha tarzda kiritilishini ta‘minlash;

9. “Konvension markazi”ning buxgalteriya va xo‘jalik faoliyatida yo‘l qo‘yilgan xato hamda kamchiliklarning asosiy sababi — ish hajmining ortib borayotgani va malakali mutaxassislar yetishmovchiligi hisoblanadi. Shu munosabat bilan:

- buxgalteriyaga 1 ta shtat birlik, (materiallar hisob-kitobi bo‘yicha buxgalter)
- xo‘jalik faoliyatini samarali tashkil etish uchun 1 ta shtat birlik;
- 1 ta omborchi shtat birligini joriy etish taklif etiladi.

Bulardan tashqari, Adliya vazirining 2025-yil 14-fevralda “Adliya vazirligi markaziy apparati va hududiy adliya organlarida budget hisobi va moliyaviy hisobotlarni yuritish yuzasidan “Hisob siyosati”ni belgilash bo‘yicha uslubiy qo‘llanmani tasdiqlash haqida”gi 58-um-son buyrug‘iga asosan Adliya vazirligi markaziy apparati va hududiy adliya organlarida budget hisobi va moliyaviy hisobotlarni yuritish yuzasidan “Hisob siyosati”ni belgilash bo‘yicha 7-bob, 51-ta moddadan iborat uslubiy qo‘llanma ishlab chiqildi.

Mazkur qollanmaga (Adliya vazirligi markaziy apparati va hududiy adliya organlariga mo‘ljallangan) 14-shakldan iborat hisob shakllari ilova qilingan.